



Maktablarda chet tilini o'qitish bo'yicha metodlar

Ramazonova Dinora

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda rivojlanib borayotgan mamlakatimizda, jamiyatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha turli xil izlanishlar olib borilishi bilan bir qatorda, ta'lim olayotgan yosh avlodni o'zgacha dunyoqarash va ma'suliyat ila tarbiyalash maqsadida maktab ta'lim dasturlariga bir qancha yangicha zamonaviy metodlar kiritilmoqda. Mazkur ilmiy maqola maktablarda chet tillarini o'qitish bo'yicha zamon talabiga mos samarali metodlar va ularning dars jarayonlarida qo'llash usullari to'g'risida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: metod, metodika, direct (to'g'ridan to'g'ri) metodi, grammatik- tarjima metodi, dsajestopediya metodi, nazariya, amaliyot, natija, xulosa.

Metod va metodika haqida:

Metod so'zi aslida yunon tilidan kirib kelgan bo'lib, **'metodos'** – bilish, tadqiqot qilish yo'li, nazariya va ta'limot kabi tarjima qilinadi va qo'llaniladi. Metod bu sodir bo'layotgan voqelikni ham amaliy, ham nazariy tomondan o'rganish, o'zlashtirish, o'rgatishning usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslab berish usuli hisoblanadi.

Metodikaning kelib chiqishi kishilarning amaliy hayot tarziga borib taqaladi. Metoddan xabardor va uni qo'llashni bilgan shaxs o'z vazifasini boshqalarga nisbatan tez va oson bajara



oladi. Metodika ilmini egallamagan shaxs esa, shubxasiz, belgilangan ishni ado etish uchun ko'p energiya va vaqt sarflaydi. Metod o'z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy bo'lishi mumkin. Metodika esa biron bir vazifani amalga oshirishda qo'llaniladigan sanoqsiz metodlar jamlanmasidir. Barcha metodlar majmuini ilmiy nazardan o'rganadigan, rivojlantiradigan fan sifatida tushunish lozim. Metodika chet tillarini o'qitish uslubi sifatida ham o'quv dasturiga kiritilgan. Bugungi kunda metodikaga asosan ta'lim berish odatiy va samarali usulga aylanib bormoqda. Shu sababdan, o'qituvchi bo'lishni xohlagan har bir kadrndan metodika bo'yicha mukammal bilim talab qilinadi.

Maqolamizning asosiy maqsadi bo'lgan chet tillarini o'qitishda ham maqsadga muvofiq turli xil metodlar asosida darslar olib boriladi. O'qituvchining metod salohiyati qancha yuqori bo'lsa, metodikadan qaysi vaqtda qanday qo'llashni bilsa, dars maqsadi amalga oshadi.

Chet tillarini o'rgatish bo'yicha bir nechta metodlar mavjud bo'lib, quyida ularning har biri haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Grammatik-tarjima metodi:

Grammatik-tarjima metodi bu fan uchun yangilik emas, bu metod chet tillarini o'qitishdagi an'anaviy metod sifatida ham qaraladi. Bu metod odatda chet tillarini o'rganishning dastlabki bosqichlarida turgan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ayni muddao. Chunki, bu uslubda til o'rganuvchining milliy ona tilidan foydalanib darslar olib boriladi. Chet tilining grammatikasi o'rgatiladi. O'qituvchi o'z o'quvchilariga yangi chet tildagi so'zlarni ona tilidan tarjima qilish orqali o'rgatadi. Bu uslubda chet tili muntazam qo'llanmasada, bu tilning grammatikasi, so'zlashuvda va yozuvda qanday qo'llash haqida nazariy bilimlar berib boriladi. Chet tili haqida yangi ma'lumotlar qabul qilish bilan bir qatorda ona tilidagi bilimlar ham takrorlanib, mustahkamlanib boradi. Ushbu metodning texnikalari sifatida quyidagilarni sanash mumkin:



Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilaridan yangi so'zlarni u bilan birga takrorlashini so'raydi. O'qituvchi "apple – olma" deb aytadi va o'quvchilar o'qituvchining ortidan takrorlaydi: "apple- olma ".

O'qituvchi darslikda berilgan chet tilidagi matnni o'qishni va uni tarjima qilishni so'raydi. Va har bir o'quvchi bittadan gapni o'qiydi va uni o'z ona tillariga tarjima qilishadi.

Direct (to'g'ridan to'g'ri) metodi:

Direct metodi ham fanda yangillik emas. Bir necha yillardan beri ushbu metodning texnikalari o'qituvchilar tomonidan foydalanilib kelmoqda. Asosan hozirgi kunda ushbu metodning bosh tamoyili bu o'quvchilarni yangi tilni jamiyatda to'g'ri va ravon qo'llashini taminlashdir. Bu metod o'rganuvchilarni ravon nutq sohibi sifatida tayyorlovchi samarali metoddur. Bu metodda, grammatik-tarjima metodidan farqli ravishda, ona tilidan foydalanish taqiqlanadi. Shu sababdan ham dars jarayonida o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham o'rganilayotgan chet tilida muloqot qilish talab etiladi. Ushbu metodga ko'ra tarjimaga ruxsat yo'q. O'qituvchi o'rganuvchiga ma'lumotlarni tushunarli bo'lishi maqsadida turli xil ko'rgazmali materiallardan foydalanishadi. Bu metod chet tilida ravon so'zlashishni tatbiq qilishda eng to'g'ri metoddur.

Dsajestopediya metodi:

Bu metod zamonaviy ta'lim standartlariga xosdir. Bu metod asoschisi Georgi Lozanovning fikriga ko'ra o'rganuvchi o'zining imkoniyatlariga qaraganda, psixologik to'siqlar (biz bajara olmasligimizdan qo'rqamiz, o'rganish qobiliyatim cheklangan, muvaffaqiyatsiz tugashi mumkin kabi) ni ko'p o'ylaydi. Natijada, o'rganish sifati ham, tezligi ham susayadi. Samarasizlik ortadi. Dsajestopedia metodini o'rganish va qo'llash orqali o'rganuvchidagi psixologik to'siqlarni, salbiy fikrlarni yo'qotib, til o'rganishda muvaffaqiyatga erishish mumkin. Bu metodda o'qituvchi o'quvchilariga bajarish uchun topshiriq beradi. O'quvchilar topshiriqni bajarayotgan vaqtda esa psixologik holatni



yaxshilash maqsadida yaratilgan sokin musiqa orqa fonda yangraydi. Bu texnika orqali o'rganuvchi dars jarayonidagi yuqorida sanalgan salbiy to'siqlarni yengib fanda muvaffaqiyatga erishish imkonini qo'lga kiritadi.

Yuqorida nomi tilga olingan metodning har biri chet tillarini o'rganuvchiga samarali

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Techniques & Principles in language teaching" Diane Larsen-Freeman and Marti Anderson (third edition) 2020;
2. Georgi Lozanov fikrlari;
3. <https://sultonov.wordpress.com>
4. <https://nauchniyimpuls.ru.com>
5. Ilmiy rahbar: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti oliy toifali o'qituvchi PhD Dotsent Nilufar Muhammedova Elibayevna.